



Eshitishida Nuqsoni Bo'lgan Shaxslarning Muloqoti Uchun Qilinayotgan Ishlar Amalda

Sh.N. Ibadullayeva

Maxsus pedagogika kafedra o'qituvchisi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Yorqulova Risolat Otabek qizi

Eshboboyeva Iroda A'zamjon qizi

Logopediya yo'nalishi talabasi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

Otaxonova Sumbula Xudayor qizi

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi talabasi

Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti

ABSTRACT

Ushbu maqolada siz eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarning o'zaro muloqotini tashkil etish qilinayotgan ishlar haqida, surdopedagogikaning o'rni, olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar, ushbu yo'nalish bo'yicha hukumat qarorini ijrosi haqida ma'lumot olishiz mumkin

ARTICLE INFO

Received: 28th September 2022

Revised: 28th October 2022

Accepted: 24th November 2022

KEY WORDS: "Ovozsiz dunyo", dunyo qarash, surdopedagogika, defektologiya, kar, zaif eshituvchi, labdan o'qish, daktilologiya, tasodif, stress, qo'rquv.

Ovozsiz dunyo deganda biz eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslarni sukunatga limmo lim dunyosini inobatga olamiz. Ular ichki kechinmalarini so'zlar bilan bizga tushuntirib bera olmasa, bu degani ularning o'z dunyosi yo'q hech narsa his qilmaydi yoki sezmaydi deya o'ylashimiz bu mutloq noto'g'ri hisoblanadi. Sababi shundaki, har bir shaxsning gapira olmasada, o'z dunyosi, o'z qarashlari, o'zining shaxsiy fikrlari mavjud bo'ladi.

Surdopedagogika bu lotincha so'zdan olingan bo'lib, "surdus" kar va pedagogika degan ma'nolarni anglatadi. Defektalogiyaning bir yo'nalishi hisoblanadi. Kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o'qitish va tarbiyalash masalalarni ishlab chiqadi. Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o'qitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanishi, bolalarning o'quv fanlarini o'qitish, to'g'ri talaffuzga o'rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari orqali biz ko'proq ma'lumotga ega bo'lishimiz mumkin. Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o'rganib, maxsus o'quv-tarbiya jarayonini tuzilishining asoslarini hamda muassasalarini tashkil etish tartiblarini ishlab chiqadi.

Fan asoslarini o'rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og'zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og'zaki nutqni o'rgatish uchun so'zlar talaffuz qilinayotganda nutq organlarining harakatlariga qarab zaif eshituvchilar tovush va so'zlarni ajratib olishga, ya'ni "labdan o'qishni" o'rganadi.

Nutq harakatlarini takrorlashga o'rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuningdek, eshitishida nuqsoni bo'lgan shaxslar maxsus o'quv alifbosi-daktilologiyada foydalanib gapirishlari ham mumkin. Maxsus ta'lim sharoitida o'quvchilarda turli yo'nalishdagi faoliyatning malaka va ko'nikmalari hosil qilinadi va ijtimoiy hayotga tayyorlanadi. Surdopedagogika otoloringologiya, akustika, logopediya, fiziologiya kabi sohalar bilan uzviy bog'liq.

Vigotskiyning ta'kidlaganidek, birlamchi nuqson ikkilamchi nuqsonni keltirib chiqaradi. Bunday deyishga sabab agarda bolada mutloqo nutq mavjud bo'lmagan oilada dunyoga kelsa, bola hech qanday so'z eshitmasa, uning ichki lug'ati kengaytirilmaganligi oqibatida quloqlari eshitadigan sog'lom farzand bo'lsa ham bola gapira olmaydigan, ya'ni nutqsiz bo'ladi. Buning sababi ota-ona nutqining yo'qligi va bolani lug'ati yo'qligidir. Bola chaqaloqlik davrida hech qanday suhbat olib borilmagan, bola yoshlik davridan ota-onasi imo-ishoralar orqaligina gapirishlarini o'rganganligi uchun birlamchi nuqson ikkilamchi nuqsonni keltirib chiqaradi. Yoki bu uning teskarisi bo'lishi mumkin. Nutq bo'lmashligining ko'plab sabablari mavjuddir. Misol uchun: u gendan genga o'tib, ya'ni gen surayotgani yoki orttirilgan bo'lishi ham mumkin. Orttilganlikning asosiy sabablaridan biri bu bola qattiq qo'rqishidan ham kelib chiqishi, stress va turli hil baxtsiz hodisa va omillar sabab bo'lishi mumkin. Gapira olmagan bola imo-ishoralar orqaligina gapiradi.

Bugungi kunda yurtimizda ham surdopedagogika faniga katta e'tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz 20-oktyabrda 407-sonli qarorlarida shuni ta'kidlaganlarki, O'zbekistondagi barcha maktab o'quvchilari imo-ishora tili va brayl alifbosini o'rganishni boshlaydi. 2023-yil 1-yanvardan maktablarda o'zbek imo-ishora tili va brayl alifbosini o'rgatish bo'yicha kurslar tashkil etiladi. Shuningdek, 2023-yil sentabrda oyidan boshlab va har yili "eng yaxshi imo-ishora tili tarjimoni" tanlovi o'tkazilib g'oliblar 15-30 million so'mgacha bo'lgan pul mukofatlari bilan rag'batlantiriladi. Qarorga muvofiq bizning universitemizda ham "Maxsus pedagogika" kafedrasida "Ovossiz dunyo" to'garagi tashkil etilgan.

To'garak rahbari Dehqonova Muborak G'iyosiddinova talabalarga mahorat bilan dars o'tib o'z faoliyatlarini olib bormoqdalar. Universitet rektori Muhamedov G'ofurjon Isroilovich o'z tashriflarida aynan mana shu to'garakga katta qiziqish bildirganlar hamda "meni ham o'z to'garaklariga shogirdlikka olasizlar" deb fikr bildirgan edilar. Mana shu so'zlardan ko'rinib turibdiki yurtimizda hech qanday xatti-harakat bee'tibor qoldirilmaydi hamda yoshlar uchun keng imkoniyatlar yaratilib beriladi. Biz bundan oqila foydalangan holda o'z kasbimizning yetuk mutaxasisi bo'lib yetishmog'imiz darkor. Prezidentimiz ta'kidlaganlaridek "Kelajak biz yoshlarning qo'limizda"dir. O'zbekistonda mana shu yo'nalishga katta hissa qo'shgan olimlardan biri bu Ubayda Fayziyevadir. U kishining "Ko'ring, eshiting, chiroyli gapiring" nomli hamda shunga o'xshagan ko'plab kitoblari mavjuddir. Bu kitobda juda ko'p narsalar o'rgatilgan bo'lib, bolalar uchun har xil logopedik mashqlar bulardan: hartumcha, filcha, qurbaqa, shirin murabbo quymoq kabilarni misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Nafas mashqlari, har bir tovush uchun postanovkalar qay tarzda bajarish kerakligi haqida to'liq ma'lumot berilgan.

Biz o'rganishimiz uchun ma'lumotlar hamda adabiyotlar juda ko'p ulardan oqilona foydalanishimiz zarur. Bu jarayonda, ya'ni bolalarning nutqini rivojlantirishda faqatgina pedagoglar emas, balki ota-onalar ham bolalarning darslariga ko'maklashsalar maqsadga muvofiq bo'ladi va bolaning nutqi tezroq rivojlanadi.

References:

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2022). Nutq ustida ishlashning tizimli yondashuvlari orqali eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarni inklyuziv ta'limga tayyorlash. Pedagogik ta'lim innovatsiyon klasteri, 1(1), 350-352.
2. Ibadullayeva, S. N., Masaliyeva, S. (2022). Inkluyziv ta'lim sharoitida maktabgacha yoshdagi bolalarning matematik tasavvurlarini rivojlantirish omillari. Inklyuziv ta'lim, 1(2), 111-113.
3. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Nogironligi bo'lgan ota-ona qaramogida bo'lgan etim bolalarni ijtimoiylashtirishning metodik klasteri. Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar, 6(1), 280-286.
4. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'lim klasteri sharoitida erta inklyuziyaga erishish ko'zlar implantli bolalar ijtimoiylashuvining eng optimal omili. Yangi O'zbekistonda xalq ta'limi xodimlarini malakasini oshirishda zamonaviy yondashuvlar, 1(1), 55-65.

5. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta'limda tolerantlikka erishish kelajak o'qituvchisini inklyuziv ta'limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. *Zamonaviy maktabda va jamiyat aloqadorli*, 1(1), 61-65.
6. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi o'quvchilarni inklyuziv ta'limga tayyorlashda korreksion mashg'ulotlarning ahamiyati. *Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari*, 1(1), 35-70.
7. Fayziyeva, U. (2022). Darslik: Matematika. Toshkent ILM ZIYO, 1(1), 62.
8. Fayziyeva, U. (2022). Darslik: Alifbe. Toshkent, 1(2), 85.
9. Fayziyeva, U. (2022). Inklyuziv ta'limning istiqbollari. *Maktab va hayot*, 2(158), 135-145.
10. Файзиева, У. (2021). Перспективы обучения детей с нарушениями слуха и оснащения специализирован. *Наставник*, 35(35), 4-5.
11. Файзиева, У. (2021). Новый подход и интерактивные методы в процессе инклюзивного образования. *Наставник*, 30(30), 75-78.
12. Fayziyeva, U. (2021). Alohida ehtiyojli bolalarning inklyuziv sharoitda ta'lim olishining tashkiliy va metodik asoslar. *Maktab va hayot*, 5(1), 125-132.
13. Кодирова, Ф. У. (2021). Методик кластер замонавий мактабда соғлом рақобат ричаги. *Замонавий таълим*, 2(2), 46-51.
14. Кодирова, Ф. У. (2021). Педагогический инновационный кластер в инклюзивном образовании. *Academic research in educational sciences*, 2(3), 521-527.
15. Usmanovna, Q. F., Olimovich, A. A., & Shuxratovna, S. Z. (2021). Early Inclusion is the Best Way to Socialize Children with Coxle Implants. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 8887-8897.
16. Кодирова, Ф. У. (2020). Значение методического кластера в практики высшего и общеобразовательного образования. *Актуальные научные исследования*, 1(1), 5.
17. Ишматова, О. С. (2020). Инклюзив таълимга кохлеар имплант бўлган болаларни муваффақиятли реабилитация қилиш омилилари. *Science and Education*, 1(Special Issue 4), 186-195.
18. Ишматова, О. С. (2021). РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКОЙ РИТМИКИ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА. In *СТУДЕНЧЕСКИЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ* (pp. 187-188).
19. Ишматова, О. С. (2021). Цели и задачи исследования развития устной речи детей с нарушениями слуха средствами фонетической ритмики. in *наука, образование, инновации: актуальные вопросы и современные аспекты* (pp. 241-243).
20. Ishmatova, O. S., & Abdujalil O'g'li, H. A. (2022). MAVZU: IMKONIYATI CHEKLANGANLAR FAOLIYATIDA AKT NING ROLI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(11), 24-28.
21. Ishmatova, O. S. (2022). NUTQIY NUQSONLARNI BARTARAF ETISHDA FONETIK RITMIKANING ROLI. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(10), 378-380.
22. Ishmatova, O. S. (2022). Boshlangich talim sifatini yangilashda umumtalim maktablarda logopedik shaxobchalar faoliyatining orni. *Barqarorlik va yetakchi tadqiqotlar onlayn ilmiy jurnali*, 2(10), 388-391.
23. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida nuqsoni bor bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali rivojlantirish. *Chirchiq*, 1(1), 70.
24. Ishmatova, O. S. (2022). Korreksion mashg'ulotlarda eshitishida muammolari bo'lgan bolalarning og'zaki nutqini fonetik ritmika orqali shakllantirishda "Quvnoq fonetik ritmika" texnologiyasining samarasi. *Муғаллим*, 1(2), 135-138.